

AMIR TEMUR VA U TUZGAN ARMIYA

Namangan davlat universiteti.

Ijtimoiy fanlar fakulteti talabasi

Muhammadiyev Bilol Ismoil o'g'li

E-mail: bilolmuhammadiyev5@gmail.com

Tel: +998957707796

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk sarkarda Amir Temurning davlatini markazlashtirish uchun tuzgan qurolli kuchlari, qismlari, qurol-yarog'lari, harbiy lavozimlari haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Tavochi, O'nboshi, Yuzboshi, Mingboshi, Qo'shin, Tunqal, Amir ul-umaro.

Buyuk bobokalonimiz, yengilmas sarkarda Amir Temur XIV asr ikkinchi yarmida qudratli davlat tuza oldi. Bu markazlashgan va yirik davlatni barpo qilishda Amir Temur tomonidan har bir qismi mukammal tuzilgan armiya, jang oldidan tuzilgan puxta reja, qo'shinni mohirona boshqarish kabilar katta yordam bergan. Qo'shinda ta'sis etilgan sarkarda va lavozimlar, oddiy askarlarni ham yaxshi maosh va jangda yaxshi qatnashsa mukofotlar bilan siylagani o'z armiyasining sodiqligini oshirgan.

Amir Temur ko'plab qiyinchiliklar va urushlar natijasida 1370-yilda Movarounnahr taxtiga kelgandan so'ng, uning sarhadlarini mustahkamlash, g'animlarni jazolash va atrofdagi davlatlarga tartib o'rnatish maqsadida keng qamrovli urush harakatlarini olib bordi. Bu urushlarda deyarli barchasida g'alaba qozondi. G'alabalar omili Temur tuzgan mustahkam armiyaning jasorati va sodiqligi muhim o'rin tutgan. Amir Temur o'z zamonasiga mos armiya tuzishga kirishdi. Sharqda birinchi bo'lib qo'shinda o't ochar qurol, ya'ni to'plarni olib kirdi. Shuningdek, u tog'li hududlarda jang harakatlarini olib boruvchi piyodalardan tuzilgan maxsus harbiy qismlarni tashkil etdi. Amir Temur jahon harbiy san'ati tarixida birinchi bo'lib qo'shinni jang maydonida yetti qo'lga bo'lib joylashtirish tartibini joriy qildi. Shuningdek, armiyada ayollar ham bo'lib, jang chog'ida erkaklar bilan bir safda turgan.

Qo'shin piyoda va otliq askarlardan iborat edi. Temur piyodalarning ahamiyatiga mo'g'ullardan ko'ra ko'proq ahamiyat bergan. Uzoq yurishlar vaqtida harakatlanish uchun piyodalar ham otlar bilan ta'minlangan. Ba'zan aniq nishonga o'q otish lozim bo'lgan paytlarda otliq qo'shin ham otlardan tushib, yayov holda harakat qilgan. Qo'shinda asosiy rolni otliq qo'shin o'ynagan. Ular tez harakat qiluvchi yengil suvoriylarga va og'ir qurolli otliqlarga bo'lingan. Og'ir qurollangan otliqlarning

vazifasi dushmanga hal qiluvchi zarbani berishdan iborat bo'lgan. Amir Temurning xos soqchilari va gvardiyasi ham bo'lgan. [2. – B. 84]

Qo'shin "O'nliklar" ("ayl"), "Yuzliklar" ("qo'shun"), "Mingliklar" ("hazora") va "O'n mingliklar" ("tuman")ga bo'lingan va ularga "O'nbooshi", "Yuzbooshi", "Mingbooshi" hamda "Amir"lar boshchilik qilganlar. "Tuman"larda askarlar soni 10 ming, qo'shinda esa 100 ming bo'lgan. 10 minglik lashkarlarni boshqarish uchun "Tuman og'asi", minglik bo'limni "Mirixazora", yuzlikni "Qo'shunbooshi" va o'nlikni boshqarish uchun "Aylbooshi" kabi harbiy mansablar tashkil qilingan. Amir Temur o'z sipohiylarining yaroq-jabduqlari va anjom-jihozlari haqida doimo g'amxo'rlik qilgan. U shunday qonun joriy qiladiki, yurish vaqtida oddiy askarlardan har o'n sakkiz kishi o'zi bilan birga bir chodir (yhama) olgan. Har bir sipohiy bir qilich, arra, bigiz, bir qop (juvol), juvoldo'z, bolta, o'nta igna va orqaga osiladigan charm xalta olishi kerak bo'lgan. Bahodirlardan har besh kishi bir chodir, har biri temir sovut (javshan), dubulg'a, bir qilich, sadoq (o'qdon), kamon va beshta ot olgan. Yuzbooshilardan har biri bir chodir, o'nta ot, qurol-aslahadan qilich, sadoq, kamon, gurzi, cho'qmor, koskan (kaska, temir qalpoq), zirh (sovut), bagtar (temirdan yasalgan, usti bahmal yoki boshqa mato bilan o'ralgan urush kiyimi) olgan. Mingbooshilar esa bir chodir, bir soyabon, qurol-aslahadan javshan, dubulg'a, nayza, qilich, sadoq va o'q-yoydan ko'targanicha olgan. Birinchi amir bir chodir, bir o'tov, bir juft soyabon, qurol-aslahadan esa qo'l ostidagilarga ham yetadigan darajada olgan. Shunga o'xshash ikkinchi, uchinchi... to amir ul-umarogacha har qaysisi o'z martabalariga yarasha qurol-aslahadan va boshqa anjomlardan keragicha olishlari buyuriladi. Otdan foydalanish tartibi quyidagicha belgilangan. Birinchi amir bir yuz o'n ot, ikkinchisi bir yuz yigirma, uchinchisi bir yuz o'ttiz, to'rtinchisi bir yuz qirq ot. Amir ul-umaroga yetguncha shu tartibda ot olish belgilangan va amir ul-umaro esa o'zi bilan uch yuzdan kam ot olmasligi ta'kidlanadi. Piyoda askarlarning har biri o'zi bilan birga bir qilich, bir kamon, ko'targanicha o'q-yoy olgan. [4. – B. 387].

Yoy, sadoq va qilich bilan qurollangan otliqlar asosan razvedka va soqchilik bilan shug'ullangan, o'ta zarur chog'larda dushman kuchlari bilan jang qilish huquqiga ega bo'lgan. Yurishga o'tlanishdan oldin Temurbek arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash – mashvaratga chorlagan. Ayni chog'da ulusning turli viloyat va tumanlaridan, shuningdek, tobe yurtlardan qo'shin to'plash uchun maxsus buyruq – tunqal e'lon qilingan. Farmon kerakli joylarda yuqori mansab egasi, bosh qo'mondon adyutanti – tavochi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavochi zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo'shin qismlarining qarorgoh va safardagi o'rni, jangovar tartib – yasal hamda bir joydan ikkinchi joyga ko'chishni nazorat qilish ham yuklangan edi. Temurbekning farmoyishiga binoan atoqli lashkarbooshilardan to'rttasi birinchi darajali sarkarda, ya'ni beklarbegi mansabiga tayinlangan. Dongdor amirlardan biriga amir ul-umaro lavozimi berilgan va u oliy bosh qo'mondon, ya'ni

Temurbekning noibi vazifasini ado etgan. Sohibqiron bevosita ishtirok etmagan urush va janglarda amir ul-umaro qo'shinga qo'mondonlik qilgan. Bu to'rt bekdan tashqari yana o'n ikki bek ham bo'lgan. Ular mingtadan otliqdan o'n ikki ming otliq qo'shinga sardorlik qilganlar. Quyi pog'onada turgan qo'mondon o'zidan yuqori lavozimdagi sarkardaga bo'ysingan.

Amir Temur armiyasining turli qism va bo'linmalariga uch yuz o'n uch bek boshchilik qilgan. Ularning dastlabki yuztasi o'nbegilik, ikkinchi yuztasi yuzbegilik, uchinchi yuztaligi esa mingbegilik rutbalarini egallagan. Tumanlarga Sohibqironning farzandlari, nabiralari va bir qancha nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgan. Sohibqiron qo'mondonlari tarkibini harbiy ishidan talab darajasida mahorat va malakaga ega bo'lgan shaxslardan shakllantirishga alohida diqqat qilgan. Janglarda mardlik va qahramonlik ko'rsatgan oddiy askarlarning maoshi oshirilgan. Ba'zi sabablarga ko'ra jang maydonidan qochgan askarlar o'lja taqsimotiga qatnashishdan mahrum etilgan. Urushda yarador bo'lib qaytgan shaxslarning izzat-hurmati joyiga qo'yilgan, ularga Oliy Hazratning marhamati ko'rsatilgan. [3. – B. 14–17]

Amir Temur tartib-qoidalari buzilgan mamlakatlarga tinchlik o'rnatish, shariat ahkomlarini mustahkamlash, bo'ysinmaslarni jazolash maqsadida tashkilashtirgan harbiy yurishlarida asosan to'rtta narsaga alohida e'tibor bergan. Birinchisi – qaysi mamlakatni zabt etmoqchi bo'lsa, to'g'ri kengash va tadbir bilan ish tutdi. Ikkinchisi – xatoga yo'l qo'yimaslik uchun har bir ishni ko'p o'ylab, sergaklik va ehtiyotkorlik bilan qilishga. Uchinchisi – uch yuz o'n uch asl zotli, shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofiga birlashtirgan. Ularning ahilligi juda kuchli edi. To'rtinchisi – Amir Temur bugungi ishni ertanga qoldirmagan. Yumshoqlik lozim bo'lsa, muloyimlik qilgan, qattqlik ishlatish vaqti kelsa, qattiq choralar ko'rgan. Shoshmaslik kerak bo'lgan yerda shoshilmagan, shoshilinch ishlarni kechiktirmagan. Qaysi ishni chora-yu tadbir bilan bitirishning iloji bo'lsa, unda qilich ishlatmagan.

Amir Temur janglarda qahramonlik ko'rsatganlarga munosib mukofotlarni ayamagan. Jumladan, o'nboshi, yuzboshi va mingboshilardan qay biri dushman safini buzib, o'z qarshisidagi askar favjini sindirsa, o'nboshi bo'lsa shahar hokimi bo'lgan. Yuzboshi bo'lsa, unga biron-bir mamlakat hukmdorligi berilgan. Misol uchun, To'xtamish bilan bo'lgan jangda Barlos bahodir dushman bilan yuzma-yuz borib, ularni sindiradi. Unga mukofot qilib Hori Shodmon mamlakatiga hokim etib tayinlagan. Mingboshi qarshisidagi yovni sindirsa, uni mamlakat hukmdori qilgan. Jumladan, Muhammad Ozod Katur jangidan (bir oz oldin) Burhon o'g'lon lashkarini mag'lubiyatga uchratgan siyohpo'sh jamoasini yengib, ularga qattiq zarba bergan. Muhammad Ozodni Qunduz va Ko'lib mamlakatiga voliy etib tayinlagan. Agar amirlardan qay biri g'anim qo'lidagi biron-bir mamlakatni fath etsa, unga shu mamlakat uch yilga in'om tariqasida berilgan. Qaysi bir askar qilich chopib bahodirlik ko'rsatsa, unga in'om tariqasida gurzi, qimmatbaho toshlar qadalgan o'tog', kamar,

turna bellik qilich va bir ot berilgan hamda o'nboshi lavozimiga ko'tarilgan. Ikkinchi, uchinchi bor bahodirlik ko'rsatsa, yuzboshi va mingboshi lavozimiga ko'tarilgan. [1. – B. 117–135.]

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur armiyasi o'z zamonasining armiyalaridan bir qadam oldinda bo'lgan. Chunki bu armiya har taraflama mukammal tuzilgan edi. Qurol-yarog' va jang taktikalarining yangi turlaridan oqilona foydalana olgan. Shuningdek, Amir Temur tomonidan janglarda qahramonlik ko'rsatgan askarlarga munosib unvon va boyliklar berilgandan so'ng, ular har qachongidan ko'ra ham sadoqatli va jang maydonida yengilmas bahodirlarga aylangan. Amir Temurning jang san'ati bugungi kunda ham harbiy o'quv yurtlarida o'rgatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А. Темур. *Темур тузуклари*. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2011. – 181 б.
2. Д. Х. Зияева. *Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан*. – Тошкент: “SHARQ” акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2012. – 280 б.
3. Ҳ. Дадабоев. *Аجدодларимизнинг ҳарбий маҳорати*. – Тошкент: Akademnashr, 2016. – 176 б.
4. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov. *Vatan tarixi*. 1-jild. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. – 512 б.